



**ZIYORAT TURIZMINING INFRATUZILMALARI VA JAHON
BOZORIDAGI KO‘RSATGICH DARAJALAR**

<https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i02.163>

*Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn instituti muzey menejmenti
madaniy turizm talabasi, Xalilova Sevara Maxramqul qizi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistondagi ziyorat turizmi, uning rivojlanish bosqichlar, bugungi kunda turizmga bo‘lgan talabning yanada ortib borishida yurtimizdagi ziyoratgohlarning alohida ahamiyati haqida so‘z boradi. Shunday ekan, hozirgi kunda ziyoratgohlarning alohida ahamiyati, ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish, madaniy merosni saqlash va barqaror rivojlanishini ta‘minlash lozim demakdir.

Kalit so‘zlar: Ziyoratgoh, muassasa, maqbara, madaniy meros, ziyorat turizmi, sayyoh, strategiya.

Аннотация. В данной статье речь идет о паломническом туризме в Узбекистане, этапах его развития, а также о особой важности святых мест в нашей стране для дальнейшего увеличения спроса на туризм в настоящее время. Таким образом, в настоящее время необходимо уделять особое внимание святыням, повышать их экономическую эффективность, сохранять культурное наследие и обеспечивать их устойчивое развитие.

Ключевые слова: святыня, учреждение, мавзолей, культурное наследие, паломнический туризм, турист, стратегия.

Annotation: This article discusses pilgrimage tourism in Uzbekistan, the stages of its development, and the special importance of shrines in our country in further increasing the demand for tourism today. Thus, it can be said that today it is necessary to recognize the special significance of shrines, to increase their economic efficiency, to preserve cultural heritage, and to ensure sustainable development.

Keywords: Shrine, institution, mausoleum, cultural heritage, pilgrimage tourism, tourist, strategy.

KIRISH. XX asr insoniyat o‘z tarixida misli ko‘rilmagan yutuqlarga erishdi. Turli sohalarda bashariyyat avvalari erishilmagan marralarini zabt etdi. Bunday yutuqlar insoniyat olamiga avval yeta olmagan to‘kin hayotga yetish imkoniyatini yartdi. Natijada bunday to‘kin hayotning ortidan inson dam olish va boshqa ishlar uchun mablag‘ jamg‘arish va bu ishlar uchun xarajat qilishni o‘ziga og‘ir sanamay qo‘ydi. Ana shunda insoniyat avvalari e‘tibor

bermaydigan va bu sohaga vaqt ham pul ham sarflashni istamaydigan turizm sohasi dunyoda jadallik bilan rivojlana boshladi. Shu o‘rinda haqli savol paydo bo‘ladi turizm o‘zi nima? “Turizm bu – odamlarning boshqa joyga sayohat qilib, yangi joylarni madaniyatlarni va tajribalarni o‘rganish jarayonidir. Bu jarayon turli maqsadlarda amalga oshirilishi mumkin: dam olish, sog‘lomlashtirish, ta‘lim, ziyorat, sport, ekologiya va h.k”.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O‘zbekistonda ziyorat turizmi so‘nggi yillarda jadal rivojlanayotgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Mamlakat hududida islom olamida mashhur bo‘lgan ko‘plab muqaddas qadamjolar va allomalar maqbaralari mavjud. Ayniqsa Samarqand, Buxoro, Toshkent va Xiva shaharlari ziyoratchilar eng ko‘p tashrif buyuradigan maskanlar sanaladi. Bu hududlarda joylashgan Imom Buxoriy majmuasi, Bahouddin Naqshband majmuasi, Hazrati Imom majmuasi kabi obidalar nafaqat diniy, balki tarixiy va madaniy ahamiyatga ham ega.

Ziyorat turizmi infratuzilmasi doirasida xalqaro aeroportlar, zamonaviy temir yo‘l qatnovlari, mehmonxonalar, transport xizmati, ovqatlanish shoxobchalari va malakali gidlar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Ziyoratchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ziyoratgohlarni obodonlashtirish va servis xizmatlarini yaxshilash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Diniy turizm ikki asosiy turga bo‘linadi:

- ziyorat turizmi;
- ekskursiya va ma‘rifiy yo‘nalishdagi diniy turizm

Hozirgi kunda dunyo bo‘yicha har yili 200 mln.dan ortiq kishilar aynan ziyorat maqsadida jahondagi turli ziyoratgohlar va o‘zlari uchun muqaddas hisoblangan maskanlarga borib, diniy sayohatlarni amalga oshirmoqda. Statistik ma‘lumotlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, yiliga 150 mln xristianlar, 45 mln musulmonlar, 40 mln buddistlar va sintoistlar, 30 mln induistlar diniy ziyorat maqsadida sayohat qiladilar. Diniy ziyorat o‘rta asrlarga kelib, Salib yurishi shaklida O‘ziga xos ommaviy xarakter kasb etdi. U musulmonlar qarshi kurash bayrog‘i ostida, xristianlarning muqaddas joylarini ulardan ozod qilish shiori ostida o‘tkazilgan. Ziyorat harakatlari XV – XVI asrlarda ancha faollashdi. Muqaddas yer(Quddus)ga borayotganlarning ko‘pchiligi o‘z maqsadlari va qiziqishlarini diniy ziyorat bilan niqoblashgan.

Ziyoratgohlarning keng va xilma-xil geografiyasini o‘rganish uchun rayonlashtirishdan foydalaniladi. Jahonda ziyoratning bir qancha makro hududi mavjud:

Jahon bozorida O‘zbekiston ziyorat turizmi yo‘nalishida muhim o‘rin egallab bormoqda. Mamlakatning boy diniy merosi va allomalar vatani sifatidagi nufuzi xorijiy sayyohlar oqimini oshirmoqda. Natijada ziyorat turizmi iqtisodiyotning xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va mamlakatning xalqaro maydondagi obro‘sini mustahkamlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda ziyorat turizmi, uning rivojlanish bosqichlari va bugungi kunda turizmga bo‘lgan talabning ortib borishida yurtimizdagi ziyoratgohlarning alohida ahamiyati, o‘rni beqiyos demakdir. O‘zbekistonning ziyorat turizmi rivojlanishining dastlabki bosqichlari tarixiy yodgorliklar va muqaddas joylarning diniy ahamiyatiga asoslangan. Keyinchalik, bu soha iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlanib, xalqaro sayyohlarni jalb qilishga qaratilgan strategiyalar ishlab chiqildi. Hozirgi kunda ziyoratgohlarning alohida ahamiyati, ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish, madaniy merosni saqlash va barqaror rivojlanishini ta‘minlashda muhim ro‘l o‘ynamoqda. Buxoro viloyatidagi diniy va ma‘daniy meros obyektlar, masalan, Samarqand va Xiva shaharlaridagi muqaddas joylar, mamlakatga yiliga 1,2 milliondan ortiq sayyohlarni jalb qilib kelmoqda. Shu bilan birga, ziyorat turizmini rivojlantirishda infratuzilma yetishmovchiligi, xizmat sifati, marketing va investitsiya muammolari mavjud. Ushu muammolarni bertaraf etish uchun infratuzilmani modernizatsiya qilish, xususiy sektorni jalb etish hamda hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha amaliy takliflar ligasi surilgan.

O‘zbekistonda ziyorat turizmi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, mamlakat qadimdan islom dinining sunniylik oqimiga mansub musulmonlar yashab kelayotgan hudud sifatida ko‘plab muhim tarixiy va diniy maskanlarga ega. Yurtimizdagi ayrim tarixiy shaharlar va qadamjolar YUNESKOning Butunjahon madaniy merosi ro‘yxatiga ham kiritilgan. Ularning eng mashhurlaridan biri “Sayqali ro‘yi zamin” nomi bilan mashhur bo‘lgan buyuk Samarqand shahridir.

Samarqand nafaqat O‘zbekistonda, balki butun Markaziy Osiyoda yirik iqtisodiy, madaniy, tarixiy va strategik ahamiyatga ega shahar hisoblanadi. U Buyuk Ipak yo‘lining markazi, G‘arb va Sharqni bog‘lagan qadimiy va qudratli maskan, shuningdek, Amir Temur davlatining poytaxti bo‘lgan. Shaharning ziyorat turizmi rivojlanishida O‘zbekiston uchun ahamiyati nihoyatda yuqori. Samarqandda musulmon olamining mashhur allomalaridan biri, hadis ilmining sultoni Imom al-Buxoriyning maqbarasi joylashgan. Har yili millionlab musulmonlar ushbu muqaddas qadamjoga tashrif buyurib, buyuk islom olimining xotirasini yod etadilar.

Samarqandning yana bir muhim tarixiy obidasi Shohi Zinda memorial ansamblidir. Ushbu maskan ko‘plab musulmon ziyoratchilar uchun muqaddas joy hisoblanadi. Maqbara payg‘ambarimizning amakivachchasi Qusam ibn Abbos nomi bilan bog‘liq bo‘lib, rivoyatlarga ko‘ra, u shu yerda shahid bo‘lgan va muqaddas shaxs sifatida e‘zozlanadi.

Xorijiy mamlakatlar va O‘zbekistonningziyorat turizmsalohiyatiini shakllantirish, rivojlantirish va ulardan foydalanish muammolariga ko‘plab fundamental va amaliy tadqiqotlar bag‘ishlangan. BMTning Jahon TurizmTashkiloti (UNWTO)tomonidan e‘lon qilingan hisobotlarda ziyorat turizmining global miqyosdagi o‘sishtendensiyalari,diniy yo‘nalishdagi sayohatlarning iqtisodiy ta‘siri va barqaror rivojlanish uchun ahamiyati keng

ma'lumotlariga ko'ra, ziyorat turizmi global turizmoqimining 30 foizidan ortig'ini tashkil qilmoqda, bu esa uning strategik ahamiyatini tasdiqlaydi¹²¹.

Ziyorat turizmining yana bir muhim markazi Termiz shahri yaqinida joylashgan Al-Hakim at-Termiziy maqbarasidir. Bu yerda buyuk islom olimi Abu Abdulloh ibn Hasan ibn Bashir al-Hakimiy at-Termiziy dafn etilgan. Ushbu majmua Termiz shahrining turistik salohiyatini oshirishda katta rol o'ynaydi hamda ko'plab mahalliy va xorijiy ziyoratchilarni jalb etadi.

Andijon viloyatida joylashgan Qutayba ibn Muslim maqbarasi ham muhim diniy qadamjolardan biridir. Qutayba ibn Muslim islom dinini O'rta Osiyoga yoyishda katta xizmat qilgan arab sarkardasi sifatida tarixda muhim o'rin egallaydi. Ushbu qadamjo bilan bog'liq turli rivoyatlar mavjud bo'lib, ular ziyoratchilar e'tiborini yanada oshiradi.

Umuman olganda, O'zbekistonning deyarli har bir viloyati ziyorat turizmini rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega. Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish orqali turizm sohasini yanada rivojlantirish, mahalliy va xorijiy sayyohlar oqimini ko'paytirish, turistik infratuzilmani takomillashtirish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mumkin. Bu esa mamlakat iqtisodiyoti va xalqaro nufuzining oshishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida" gi 2021-yil 9-fevral PF-6165-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalqaro ziyorat turizmi haftaligi" ni tashkil etish va o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2021-yil 20-may 282-son qarori¹²² qabul qilindi. Unga ko'ra, 2022-yildan boshlab har yilning noyabr oyi birinchi haftasida an'anaviy tarzda "Xalqaro ziyorat turizmi haftaligi" ni tashkil etish belgilab qo'yildi.

Ziyorat turizmi so'ngi yillarda sezilarli darajada kengayib, imkoniyatlar va bozori o'sib, turizm industriyasiga katta o'zgarishlar olib kirmoqda. Misol uchun olaylik, "Masterkard-Crescentrating" agentligining "Global Muslim Travel Index 2022" reytingi ma'lumotlariga ko'ra dunyo miqyosida taxminan 2 milliard musulmon aholi mavjud bo'lib, bu dunyo aholisining 25 foizidan oshig'ini tashkil etadi. Shuningdek, musulmon sayyohlar sigmenti son jihatidan tez o'sayotgan hamda boshqa diniy konfessiyalarga mansub sayyohlarga qaraganda eng yoshi hisoblanadi, ya'ni ularning o'rtacha Yoshi 25 yoshni tashkil etadi. 2019-yilda xalqaro musulmon sayyohlar soni 160 million kishi bo'lgan bo'lsa, COVID-19 pandemiyasidan keying qayta tiklanish davrida, ya'ni 2022-yilda 110 million kishi yoki xalqaro sayyohlar sonining 12 foizini tashkil etadi. Bundan tashqari, Islom Hamkorlik Tashkilotiga a'zo mamlakatlar (57 mamlakatlar a'zo va musulmonlar soni 1,8 milliard kishi) tez rivojlanayotgan va milliy daromadlari oshib borayotgan mamlakatlar hisoblanadi. Agenlik ma'lumotlariga ko'ra, bu ko'satkich 2026-yil 230 million kishiga

¹²¹ UNWTO Religious Tourism Report 2024

¹²² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalqaro ziyorat turizmi haftaligi" ni tashkil etish va o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2021-yil 20-may 282-son qarori

yetishi pragnoz qilinmoqda. Ulardan keladigan tushim 2019-yil 190 million AQSh dollarini tashkil etgan bo‘sa, 2022-yil halol turizm bozori qiymati 245,7 milliard AQSh dollorga teng bo‘ladi.

N. Sayfullayev(2023) o‘zining "Ziyorat turizmini rivojlantirishning nazariy asoslari" ilmiy ishida O‘zbekistonsharoitida ziyorat turizmi salohiyatini baholash va samaradorlik mezonlarini ishlabchiqishmetodikasini taklif qilgan¹²³

Ziyorat turizmi, asosan, musulmonlarning diniy majburiyatlarini bajarish uchun amalga oshiriladigan sayohatlarni o‘z ichiga oladi. Bunga Makka va Madinaga haj va umra ziyoratlari, shuningdek, boshqa muqaddas joylarga tashriflar kiradi. Biroq so‘ngi yillarda ziyorat turizmi kontseptsiyasi kengayib, musulmon sayyohlarning madaiy, tarixiy va tabiatga oid joylarga bo‘lgan qiziqishlarini ham o‘z ichiga olmoqda.

Ziyorat turizmining o‘sishi, nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va madaniy sohalarda ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Masalan, ziyorat turizmi rivojlanishi bilan yangi ish o‘rnlari yaratilmoqda, mahalliy bezneslar rivojlanmoqda va infratuzilma yaxshilanmoqda. Saudiya Arabistonining Makka va Madina shaharlari misolida haj va umra ziyoratlarining statistik o‘shish dinamikasi o‘rganilgan. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, ziyoratchilar soning yil tizimini, mexmonxona xo‘jaligi va boshqa yordamchi infratuzilmalarni jadal rivojlantirishni taqazo etmoqda.

Shuningdek, ziyorat turizmi orqali musulmonlar o‘rtasida madaniy almashinuv va o‘zaro tanishish kuchaymoqda. Ziyorat turizmi rivojlanishi bilan birga, ushbu sohada raqobat ham ortmoqda. Turizm kompaniyalari va xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar musulmon sayyohlarning ehtiyojlariga mos xizmatlarni taklif etishga intilmoqda. Ziyorat turizmi xizmatlarini targ‘ib qilishda zamonaviy marketing yondashuvlaridan foydalanish, maqsadli auditoriyani aniqlash va ularga individual xizmatlar ko‘rsatish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Umuman olganda ziyorat turizmi dunyo bo‘ylab kengayib borayotgan va iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy sohalarda sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan soha hisoblanadi. Ushbu sohaning rivojlanishi bilan birga, barqarorlikni ta’minlash va ekologik muvozanatni saqlash masalalari ham dolzarb ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

XULOSA

Hozirgi kunda tez suratlarda ommalashib borayotgan turizm sohasi hisoblangan ziyorat turizmini rivojlantirish mazkur sohada yuqori salohiyatga ega davlatlar uchun qulay imkoniyatdir. Yuqorida keltirib o‘tilgan fikrlardan va misollardan shunday xulosaga kelish mumkinki, mamlakatning har bir a‘zosi, shu jumladan tashqi davlatlar ham amal qilishi kerak bo‘lgan ziyorat turizmini barqaror rivojlantirish uchun muhim siyosat va strategiyalarni ishlab chiqish zarur. Bundan tashqari, xorijiy sayyohlarni jalb qila oladigan infratuzilmani yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Barqaror rivojlanishni amalga oshirish uchun ham hukumat, ham mahalliy idoralar tomonidan muvofiqlashtirilishi kerak.

¹²³ .<https://www.researchgate.net>.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. UNWTO Religious Tourism Report 2024
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalqaro ziyorat turizmi haftaligi” ni tashkil etish va o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 2021-yil 20-may 282-son qarori.
3. <https://www.researchgate.net>.
4. O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi. O‘zbekiston: turizm va madaniyat. – Toshkent, 2018. Mazkur nashrda O‘zbekistonda turizm tarmoqlari, jumladan ziyorat turizmi haqida batafsil ma’lumotlar hamda uning rivojlanish istiqbollari yoritilgan.
5. Sharifov, M. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishning iqtisodiy asoslari. – Toshkent, 2020. Asarda mamlakat turizm sohasining iqtisodiy jihatlari, xususan ziyorat turizmini rivojlantirishning moliyaviy va investitsion omillari tahlil qilingan.
6. Islomov, N. O‘zbekistonning diniy turizmi: istiqbollar va muammolar. – Toshkent, 2019. Ilmiy ishda diniy turizmning mamlakat uchun ahamiyati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rib chiqilgan.
7. Jahongir, A. Turizm va madaniy meros. – Toshkent, 2021. Kitobda O‘zbekistondagi tarixiy va diniy yodgorliklarning turizm rivojiga, ayniqsa ziyorat turizmiga ta’siri ochib berilgan.
8. Ziyorat turizmi: imkoniyatlar va muammolar. – Ilmiy maqola, 2022. Mazkur maqolada O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish istiqbollari, infratuzilma masalalari va xalqaro tajriba tahlil qilingan.